

RUSTAM MIRVOHID

# BU – OSHIQ SO‘ZIM



TOSHKENT  
«ADIB» NASHRIYOTI  
2012

УДК: 821.512.133-1

ББК: 84 (5Ў)6

A21

*Ushbu kitob O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi  
Yoshlar bilan ishlash bo‘limi tomonidan nashrga  
tavsiya etilgan.*

**Mirvohidov, Rustam.**

T65 **Bu - oshiq so'zim:** she'rlar/R. Mirvohidov.

— T.: ADIB nashriyoti, 2012. — 64 b.

ISBN 978-9943-317-46-8

**УДК: 821.512.133-1**

**ББК: 84 (5Ў)6**

ISBN:978-9943-317-46-8

©«ADIB» nashriyoti, 2012

© R. Mirvohodov, 2012



## EZGU AN'ANA

Muhtaram Yurtboshimizning «Adabiyotga eʼtibor — maʼnaviyatga, kelajakka eʼtibor» nomli risolasida «isteʼdodlarni izlab topish va ularning iqtidorini roʻyobga chiqarishda chuqur oʻylangan usullar, yaʼni aniq mexanizm zarurligini bugun adabiyotimiz manfaatlari talab etmoqda», degan fikr asosiy maqsad-muddaolardan biri sifatida alohida taʼkidlangani bejiz emas.

Ana shu yuksak eʼtibor samarasi oʻlaroq, bugungi kunda yosh iqtidor egalariga yaratilgan shart-sharoit va imkoniyatlar har qanday ijodkorning havasini keltirishi tabiiy. Jumladan, «Doʻrmon» ijod uyida ustoz-shogirdlik anʼanalarini davom ettirishga zamin yaratuvchi ijodiy uchrashuvlar, oʻquv seminarlarini aytish mumkin. Ayniqsa, ezgu anʼanaga aylanib ulgurgan «Birinchi kitobim» loyihasi doirasida chop etilayotgan moʻjaz asarlar adabiy hayotimizda ulkan hodisa sifatida eʼtirof etilmoqda.

Qoʻlingizdagi kitob ham minglab ijodkor yoshlarning ichidan saralab olingan, mashaqqatli va serzavq mehnatning hosilasi, umidli yosh ijodkorning dastlabki qadamidir.



\* \* \*

She'rlarim yurakning cho'qqilaridan -  
Qog'ozning qa'riga o'zin tashlaydi.  
Qizig'i, chilparchin bo'lgandan keyin  
Odamday o'lmaydi, YASHAY boshlaydi...





## OʻSMA

Har safar bogʻimda sayr etib yursam,  
Gul emas, xayolim rom etar oʻsma.  
Garchi u qoshlarga chiroy bersa ham  
Nega uni, bilmam, deydilar: "O'sma" ?

Axir, u chaman-da unib - oʻsmasa  
Shu kamon qoshlarning holi boʻlar voy.  
Qizlar oʻsma qoʻymay koʻzin suzmasa,  
Chimrilar yigitlar qoshi, hoynahoy.

Shu bois, bogʻ aro gullarga yaqin,  
Navnihol oʻsmaga yana tushsa koʻz.  
Shu qaro qoshlarga sevgimiz haqqi -  
"Oʻsma!" emas, deyman:  
"Gulla,  
    Yashna,  
        Oʻs!!!"



\* \* \*

Tomchilar,  
Tomchilar,  
Tomchilar -

Tinmayin  
yer uzra  
tomchilar.

Tomchilar  
yig'ilib  
jam bo'lar,  
Zum o'tmay  
yer yuzi  
nam bo'lar.

So'ng esa  
yer ichra  
singishar,

Yerning-da  
chanqog'in  
yengishar.

Yer bundan  
quvonib  
boqadi,

Ko'ksiga  
gullarin  
taqadi...



## DUNYOLARGA BERGISIZIM MENING!

Ko'nglim sarhadiga sarhading tutash,  
Osmoning tajalli etar ko'zimda.  
Quyoshing jonimga purkagan otash,  
Hiloling o'pichi qolgan yuzimda.

Boshingda parvona yulduzlarmi yo,  
Tangri taqib qo'ygan bejirim munchoq?  
Mushkin o'tloqlaring bolishdir go'yo,  
Men orom olgali yonboshlagan chog'.

Qara, ko'zim yumsam mushtoq ki priklar,  
Bir-birin vasliga yetar entikib.  
Zum o'tmay, ko'z ochsam, qoshim ustida -  
Kapalak turardi qanot silkitib...

U ilkis qochdi-yu men-da ortidan,  
Nafis gulzorlaring bag'riga kirdim.  
O, boshim aylandi bu yer atridan,  
Shunda ham bir etak gulingdan terdim.

Mehrim kokilidan bir tola uzib,  
Guldasta yasadim sen uchun, Vatan!  
Ne tong, buni ko'rib, samodan sizib,  
Sevinch yomg'irlari to'kilsa birdan...



Xalqim, "o'zbek" degan shu oddiy isming,  
Ruhimga azonday soladi titroq.  
Asli, seni maqtash, kuylashdan oldin,  
Lozimdir har kimga poklanib olmoq!

Sen-ku, maqom tutding muqaddaslikda,  
Allohdan keyin-u ona bilan teng.  
Ehtimol, tarxingni chizgan naqqosh ham  
Astoydil, bel bog'lab, shimargandir yeng'!

Ishon, senga loyiq so'zni - gavharni  
Dilim ummonidan tera olmadim.  
Hali u mo'jiziy, naqshin kitobni,  
Umrin tokchasi topa qolmadim...

Valekin, kun kelib behad muzayyan,  
She'riy taxtim uzra o'tqazsam seni.  
Ham mumtoz tashbehlar qadalgan tojni,  
Boshingga kiydirsam... Kechirgil meni!

Kechirgil, nedinki, sen bundan ortiq  
Mukofotni kutgan, ko'zi qaromsan.  
Garchi sen dunyoga doxilsan, ammo  
Dunyoga bergisiz, aziz ma'vomsan!





## ISHQ TILOVATI...

Bahor ekinlari esib qoldimi,  
Parvo ham qilmayin qishning dodiga.  
Bu holat yoshlikni esga soldimi,  
Chinorga suyangan kimsa yodiga?

Maysalar belini quchganday shabnam,  
Ul odam koʻzida yaltiraydi yosh.  
Eslaydi... shu chinor tagida bir dam,  
Juft soya qoʻshilgan, guvohdir quyosh.

Ne quyosh? U zamon butun koinot,  
Yulduzlarni sochgan ular ustiga.  
Endi-chi? Tinch qoʻymas shirin xotirotda,  
Xotirotda qabri - chinor ostida...

Chinor ostidadir beomon taqdir,  
Yuraklarga chekkan armon dastxati.  
Birdan olam tindi... tiz choʻkdi kimdir,  
Borliqqa taraldi ishq tilovati...



## G'AZAL

Eshit, ey yor, dilim sozi  
Chaman bo‘ylab jaranglaydur,  
Qo‘shildi bulbul ovozi  
Hamohanglikda yangraydur.  
Necha yillar yugurmay men  
Visolingga yetolmasman,  
Desam: bois nadur? Ayding:  
Sabab yozug‘i manglaydur.  
Bahor abri kabi to‘kdim  
Ko‘zimdan jolalar cheksiz,  
Po‘latdek toqatim hatto  
Aning ostida zanglaydur.  
Ochib erdim dilim, do‘stim -  
Tushunmay kuldi holimga,  
Netay, devona ko‘nglimni  
Faqat devona anglaydur.  
Nigorim deb shahid bo‘lsam  
mening-chun bu saodatdur,  
Falak o‘z ufqini har kech  
Mening qonim-la ranglaydur.  
Visol oni kelur, Rustam,  
Umid-la dilni pok tutgil,  
Umidsizlik g‘uboridan  
Diling ko‘zgusi changlaydur.



## XAYOL VA HAYOT

Xayol - bu ishq kabi bir laziz tuygʻu,  
Dillar parvozigga u berar qanot.  
Hayot-chi? Yozuvda oʻxshash boʻlsa-yu,  
Biroq xayol boshqa, boshqadir hayot.

Xayol oldida past koʻrinur falak,  
Misol: yor labidan soʻrurmiz novvot.  
Afsus, koʻzni ochib nazar tashlasak,  
Xayol oʻzga deymiz, oʻzgadir hayot.

Entikib chopamiz ona bagʻriga,  
Topgandek boʻlurmiz firoqqa najot.  
Nogoh shoʻngʻisak-chi, turmush nahriga,  
Xayol boʻlak deymiz, boʻlakdir hayot.

Biri cheksizlikka boshlasa bizni,  
Biri qoli plarga soladi bot-bot.  
Na iloj, birodar, ranjtgum sizni:  
Xayol bir yon ekan, bir yondir hayot.

Ammo, bunda ham bor bitta istisno:  
Uchar gilam boʻldi, mana, samolyot.  
De mak, taxayyuldan tamaddun paydo,  
De mak, pok xayol-la gurkirar hayot.



\* \* \*

Ki priging - gugurtcho'p, saf tortib turar,  
Qoshlaring ularga ishqalagichdir.  
Ko'zlaringni ochsang - yonadi ular,  
Ko'zlaringni yumsang - o'chadi bir-bir...

Karashma qilsang-chi,  
ko'zguga boqib,  
Xonangda yorug'lik yonib o'chadi.  
Tashqarida...  
mendek oshiqlar qator,  
Bunga termulganча tizza quchadi...

\* \* \*

Yomg'irga qoyilman! Arshning toqidan  
Boshi-la sanchilar yerning qa'riga.  
Yerga ham qoyilman, unga javoban -  
Ko'ksiga taqadi nafis chechaklar...  
Ba'zan shularcha ham bo'lmadik, NEGA?!



\* \* \*

El koʻzidan pinhon -  
Shabnamli barg ostida  
G'uncha lab ochdi-yu  
Asta gulladi...  
Aygʻoqchi sabo  
bu "sir"ni bilib,  
Har tomon yeldi-yu  
Birdan "gulladi".

\* \* \*

Sochlaringa taroq ursang noz ila,  
Sochlaring misol  
Xayolim chigalin  
yozib qoʻyaman.  
Va darhol  
shu fursat taassurotin -  
Yuragim chetiga yozib qoʻyaman...



## SOHIR TUN

Kech tushdi...

Qaydadir qurbaqa sayrab,  
Atrofga taratar ajib ovozin.  
Qaysidir burchakda chigirtka yayrab,  
Chertib-chertib qo‘yar qadimiy sozin.

Qaydadir sarin yel ko‘zi ilingan  
Daraxtlar bargini shovillatadi.  
To‘lin oy - dirijyor, yuragi to‘lgan  
Itlarni qaydadir uvillatadi.

Qaydadir mushuklar oyoq uchida,  
Tomning qovurg‘asin qitiqlab o‘tar.  
Qaysidir jo‘mrakdan oqqan tomchilar,  
Chinni yostiqlarga singishib ketar...

Bu jozib, bu turfa, fusunkor saslar -  
Sohir tun qizining taqinchog‘idir.  
Yo ko‘kka sin solib yotgan yigitning  
Subhi sodiqqacha ovunchog‘idir?

Ajab! Tun - shovqinli sukunatmikin,  
Va yo sukunatli shovqin, bilolmam...?



## GʻAZAL

Sobit erdim, ishqingda  
sayyoraman tobora.  
Koʻzdan oqqan jolasi  
favvoraman tobora.  
Har neki dard olamda  
bordir davosi, ammo  
Topmay bu dardga chora -  
bechoraman tobora.  
Toki dil osmoniga  
chiqib kelding oy misol,  
Yirtib yaqo bulutdek  
sadporaman tobora.  
Or-nomus qayda qoldi,  
izlaringga ergashib,  
Bosh urub eshigingda  
yolboraman tobora.  
Bu ne sitam boʻldiki,  
bila turib oxirin,  
Koʻzlaring jafosiga  
tik boraman tobora.  
Bazoʻr ilingan aqlim  
rishtasi uzilmoqda,



Bog‘lanib qoldimmi yo  
dildora man tobora.  
Ko‘cha-ko‘ylarda yotgan  
mastonalar bilmagan,  
Ko‘hna ishq sharobiga  
xummoraman tobora.  
Qog‘oz oq sahro erur,  
bir visol ilinjida,  
Qalamni aso aylab  
ovvoraman tobora.  
Muhabbat bayrog‘ini  
tutib sarbaland Rustam,  
Kirib boryapman, shukur,  
dil aro man tobora.







## SHE'RIYAT - QANDOLAT DO'KONI...

She'riyat qandolat do'koni bo'lsa,  
Shoirlarning bayti shirinliklardir.  
Qay muxlis bu ajib do'konga kirsam,  
Unda bor har neni kuzatar bir-bir...

Masalan: Navoiy shokoladlari  
Do'konning yarmini egallab borgan.  
Yonrog'ida Bobur marmiladlari  
Qancha she'rxonlarning tilini yorgan.

O'ng tomonda qanddek Mashrab g'azali,  
Ne baxtki, kim uni tatib ko'ribdi.  
Chap yonda Muqimiy bergan asali,  
Furqat halvosi-la birga turibdi.

Ogahiyning laziz ijodiyoti  
Do'konda har kuni talash bo'ladi.  
Parvardada ko'rsa kim Zavqiy otin,  
Ishi faqat labni yalash bo'ladi.

"Go'zal" degan Cho'lpon xo'rozqandlari,  
Qarasang, ko'zingni olaman, deydi.



Hamid Olimjonning "O'rik gullari" n,  
Har kishi cho'ntakka solaman, deydi.

Habibiy va Charxiy ruletlariga  
Kun sayin talablar bormoqda ortib.  
G'azalxon Chustiyning konfetlariga  
Hofizlar tirbanddir saxardan tortib.

Oybek domlaning-ku "Bir o'lka..." degan  
Novvotlarin hamon bozori chaqqon.  
Ustoz G'ofur G'ulom tortini yegan  
Muxlislar to hanuz boqadi hayron.

Sal nari yursangiz... Erkin Vohidning  
Murabbosi turar "Kamtarlik" bilan.  
Abdulla Orifning bizesin ko'ring,  
"Tilla baliqcha" ni eslaysiz birdan.

Ro'yxat tugamadi. Muhammad Yusuf  
"Qizg'aldog'"in sizga havola etar.  
Sirojiddin Sayyid muzqaymog'i xo'b  
Og'izga solmasdan eriblar ketar...



Shu xildagi qancha shirinliklar-u  
Qandolatlar soni juda ham bisyor.  
Aytchi, har biridan yeging kelmasmi?  
Hech bo'lmasa totging kelmasmi bir bor?!

Xullas, kim men kabi xaridor bo'lsa  
Boladek qandlarga o'ch bo'lsa, bilsin:  
Haqiqiy lazzatni tuyaman desa,  
Faqat shu do'konga marhamat qilsin!!!

\* \* \*

Men takror e masman, men ham yangiman,  
Barra sabzalarning hidi, rangiman.  
Men - tarix tokining ildizin shimib,  
Kelajak shoxidan ungan zangiman!.





## BU – OSHIQ SO‘ZIM

Keragidan ortiq menga keraksan,  
Zarurdan ham zarur hozir visoling.  
Yiqilsam, yelka tut, axir, tirgaksan,  
Tashnaman, siqqoray,  
bergil ziloling!

Netay, senga bog‘liq bud-u nobudim,  
Qoshing imosida tirikligim hal.  
Darig‘ tutma mehring, titrar vujudim,  
Ostonangni tavof qilganim mahal.

Uf tortma, oz qoldi, so‘ng seni zinhor,  
Bezovta qilmayman, bu - oshiq so‘zim.  
O'shanda... seni ham tanimam, dildor,  
Seni yaratganga tushganda ko‘zim.  
Lek, bu qachon bo‘lar? Bilmayman o‘zim,  
Ungacha o‘zimga tilayman to‘zim...



## OSHIQLAR DUNYOSI

Hijronning adosi yoʻq, visolning adosi bor,  
Hijron emas visolning doimo gadosi bor.  
Visol - oniy saodat, hijron - asriy uqubat,  
Shu ikki sarhad aro oshiqlar dunyosi bor.

## ONA

Quyoshga ortimni oʻgirsam, ajab,  
Battar nurin sohib qizitdi yelkam.  
Oʻylayman... mana shu quyoshga oʻxshab,  
Ranjitsam ham mehrin ayamas onam!

\* \* \*

Qogʻozga sigʻmagan dardlarim bordir,  
Hatto kuz rang olgan zardlarim bordir.  
Ishqimning ul oppoq yoqasiga boq -  
Gʻamingdan orttirgan gardlarim bordir.



## BUVIMNING BOG'I...

Meni sog'inch yuki bossa da'fatan,  
Mehr daryosiga tashnalab qolsam.  
Zeriksam, hattoki quvnoq davradan,  
Kalavasi chigal o'ylarga tolsam.  
Sarsari shamollar ila, buvijon,  
Yo'l olgum dilkusho bog'ingiz sari.  
U yerda gul uchun bulbullar sayron,  
Oshig' -u ma'shuqdir u yerda bari...  
Ul nafis gullarning bargiga qo'nib,  
Kapalak shabnamdan suv ichar rosa.  
G'uncha-ku, bolari shartiga ko'nib,  
Asal dudog'idan beryapti bo'sa.  
Chumoli yugurar donni ortmoqlab,  
Shu mitti jonzotning maqsadi bordir.  
Chuvalchang qattiq yer yurar so'roqlab,  
Unga ham tanballik juda ham ordir.  
Bu ajib holatdan hayratga tushib,  
Nigohimni sizga bursam bildirmay.  
Labda tabassum-la qo'yasiz qo'shib:  
"Bolam, gul shaydosi bo'lsam men, netay?!"  
Shunda men aytaman: "Buvijon, qarang,  
Bir parcha yerni ham rizvon qilibsiz.



Bu bog'ga kim kirsa mudom shafaqrang,  
Laziz mevalar-la mehmon qilibsiz.  
Ammo, ba'zilar-chi? Do'stga berahm  
Nashtar uryapti-ku, siz gul suqqanda.  
Yo kurtak ko'z ochsa suyunasiz jim,  
Ular bir-birining ko'zin cho'qqanda.  
Ular ko'p o'rtaga rahna solurlar,  
Siz shoxni shoxlarga payvand qilsangiz.  
Yo bog'ni sug'armoq bo'lsangiz, ular -  
Bir-birin tagiga suv quyay, esiz.  
Esiz, ular uchun pand-u nasihat,  
Ranjimam, har biri miyig'da kulsa.  
Faqat, tugarmikan bunday jaholat,  
Gul emas, ular pul shaydosi bo'lsa?!"  
Netay, sog'inch yuki bossa da'fatan,  
Mehr daryosiga tashnalab qolsam.  
Boya ham aytgandim, yana aytaman:  
Kalavasi chigal o'ylarga tolsam -  
Muattar sabolar ila, buvijon,  
Yo'l olgum dilkusho bog'ingiz sari.  
U yerda gul uchun bulbullar sayron,  
Oshig'-u ma'shuqdir u yerda bari...



## VARRAK

Do'stlar, ko'kka qarang, zangor havoda,  
Bir varrak turibdi bo'lib muallaq.  
Qancha yuksalmasin hozir samodan  
Pastga mo'ltirar u, nechundir ilhaq?

"Xo'sh, nima bo'libdi?! Bu oddiy varrak" -  
Deya kuladirsiz balki bepisand.  
Ammo, ko'zni yumib tafakkur qilsak:  
U varrak - qalb erur zaminga payvand.

## HAQGO'Y DEYDIKI...

"Fe'lingni keng qilgil!" - derlar odatda,  
Yuzlarim ol bo'lib, qizishsam har chog'.  
Bilaman, vazminlikham kerak, albatta,  
Tavoze'ni men ham tushungum,  
biroq.

Qorani qora-yu oqni deb oqlik,  
Tarbiya ko'rganman, nechun jim ketay?  
Hayhot, siz aytgan shu "kichik" nohaqlik,  
Mening tor fe'limga sig'masa, netay?!





## ONANING KOʻZI UCHSA...

Koʻz uchar... qovoqlar titraydi tinmay,  
Ona farzandidan xavotir olar.  
Bir balo sharpasin goʻyo sezganday,  
Ul-da oʻz vujudin qiynoqqa solar.

Koʻz uchar... tirqirab oqadi yoshlar,  
Qoʻmsaydi, olisda askar oʻgʻlini.  
Xayol qurgʻur shayton har koʻyga boshlar,  
Xavotir yomon-ku, doʻstlar, toʻgʻrimi?

Koʻz uchar... aksiga olib battarroq,  
Sogʻinch pichoqlari dilni tigʻlaydi.  
Onani bagʻrikeng deydilar, biroq  
Hozir-chi, hech nima qil ham sigʻmaydi.

Koʻz uchar... ha, ona chidolmay oxir,  
Sim qoqar oʻgʻli-da bergan raqamga.  
Soʻng... aytar: "sening ham farzanding  
bordir?!"  
"...Xizmatdan tashqari..." degan sanamga.



Ko‘z uchar... onaning fig‘oni ko‘kka  
Yetdimi yo bo‘ldi momaqaldiroq?  
"Rabbim, tushunarsan bu zotni yakka  
O‘zing!" de masimdan chaldi qo‘ng‘iroq.

Ko‘z uchar... telefon jiringlar... ona,  
Go‘shakni oladi... titraydi tizza...  
Jim turar... u yoqdan: "Allo, hoy, aya,  
Bu men Hasanboyman, yaxshimisizlar?"

Sokin eshitdi-yu o‘g‘lini, birdan  
Tanaga jon qaytdi, yuzlariga qon.  
Odamzod, buncha ham tuyg‘uga boysan,  
Bunchalar ham xassos yaralding, Inson?!

Xavotir! Beshafqat tuyg‘usan g‘oyat,  
Tog‘dayin bardosh ham qarshingda ojiz.  
Mayli, kimning ko‘zi uchsini-u, faqat  
Onaning ko‘zlari uchmasin hargiz!.





## KUZ ILHOMLARI

Xazon yaproqlarin men qogʻoz bilib,  
Dardi hijronlarim bitsammikin, yor.  
Soʻng esa ohimdan sabolar qilib,  
Ularni poyingga eltsammikin, yor.

Umid shu, sen uydan chiqqaning mahal,  
Xazonlar oyogʻing tavoflar etsa.  
Ulardan bittasi uchib loaqal -  
Qulogʻingga mendan mujdalar aytsa...

\* \* \*

Qalbdan chiqqan satrlar,  
Bu - qalbinning parchasi.  
Qalbimni tashkil etar  
Yigʻilsa gar barchasi.





## RUHIYAT FASLLARI...

Men yomg'ir yoqqanin sevaman...  
Ayniqsa, ayriliq tunlari, nechun?  
Nechunki, soyabon bo'lmasa agar,  
Unda ko'zyoshlarni yashirmoq mumkin.

Menga shig'alab yoqqanin yoqar  
Ko'pincha iztirob kunlari, nechun?  
Boisi, soyabon bo'lmasa agar,  
Unda soch oqlarin yashirmoq mumkin.

Quyosh nurlarin-ku, qattiq suyaman...  
Ko'chada intizor onlari, nechun?  
Sababi, soyabon bo'lmasa agar,  
Yuzim sarg'ayganin yashirmoq mumkin.

Bo'ron-u shamolga oshnodurman men,  
Afsus-u nadomat paytida, nechun?  
Chunki, shu shamollar aro sarosar -  
Ko'ksimdagi "oh"ni yashirmoq mumkin.

Ha, shunday, bor tuyg'u, hissiyotimni,  
Tabiat qo'yniga ko'marman beun.  
Faqat, siz o'qigan shu hayotimni (she'rlarimni)  
Sizdan yashirolmay turibman dilxun...

Men yomg'ir yoqqanin sevaman!



\* \* \*

Kulsang - dil osmoniga quyosh chiqar charaqlab,  
Yig'lasang - bulutlarim ko'z yosh to'kadi sim-sim...  
Ammo bir holat-ki bor: kulib turib yig'lasang -  
Quyosh chiqib yomg'irlar to'kilganday, azizim.

O'sha on hayratlarim kamalakday rango-rang...





## SO`Z DOMINI QO`YDIM...

Agar bo'lsa Navoiy  
devoni quchog'imda,  
Hamda sohir mug'anniy  
nag'masi qulog'imda.

Beixtiyor yonadur  
qalbimda ilhom o'ti,  
Ul otashning aksini  
ko'rursiz qarog'imda.

Gar umrim nahorida  
she'r bo'yidan hidladim,  
Endi to qazo qadar  
ul qolur dimog'imda.

Dam g'azalning mavjida  
oqadurman sar sari,  
Dam yoturman be majol  
taxayyul qirg'og'imda.

Hamma yoshimni gulning  
bargi uzra to'kibman,



Balki, shundan qumridek  
qatra yoʻq yanogʻimda?..

Ishqi yor misli sabo  
oʻynashur umrim bila,  
Men shamdek chunon yonsam  
hamki oʻzim yogʻimda.  
Baʼzilar el koriga  
shamshir birla yaraydur,  
Menda-chi, qonlar toʻkar  
xomalar barmogʻimda...

Rustamo, dil koʻyiga  
soʻz ila dom qoʻyibman,  
Shoyad koʻp asir koʻrsam  
bul ajab tuzogʻimda.





\* \* \*

Sabrim bulutlari chidolmagan on,  
Mehrimg'irlari to'kila boshlar.  
Afsus, u qaqragan cho'l-u biyobon  
Kabi diling uzra erimas toshlar.

U toshlar g'ururdir, u toshlar - xayo,  
Ostida ko'milgan YURAK - xazina.  
Oh, uni qo'riqlar go'zal ajdarho,  
Karashma olovin purkab,  
jimgina...

Yelkamda tortaman zahmat omochin,  
Izimdanda chechaklar ko'taradi bosh.  
Oldimda - tikanzor - bu ko'hna ochun,  
Qo'limda o'rog'im - matonat, bardosh.

Kun kelar o'zimga bo'laman hayron,  
Senga yor bo'lmoqni uddaladim, deb.  
O'shanda... quyosh ham qarzga olar qon,  
Qalbimdanda - shafaqqa bermoq uchun zeb.





## KIM BAXTLI?

Bilsang, yer baxtlidir...  
"Nega?" deysanmi -  
Poyingdan boʻsalar oladi tinmay.  
Samo ham baxtiyor - yomgʻir oralab  
Sochlaring siypalar senga bildirmay.  
Sabo ham baxtlidir, gullar atrini  
Kaftida eltadi dimogʻlaringga.  
Yulduzlar ham baxtli, tunlar aksini  
Tushurib singadi qarogʻlaringga.  
Quyosh ham baxtlidir, garchi rashk qilib,  
Koʻz qirin tashlaydi bulutlar aro.  
Zilol ham oʻshanday...  
Isming shivirlar -  
Kimning hovuchiga toʻlsa doimo.  
Qaragil, chor atrof sening oshuftang,  
"Labbay" deb ishorang kutib turibdi.  
Mana, chaqmoq chaqib bugʻdoyzor-da,  
Senga non yopgali tandir quribdi...  
Sen-ku, turtki berding zaminga avval,  
Shundan beri u ham ishqingda halak.  
Taajjub, shu ulkan zamin turganda,  
Senga maskan boʻldi koʻksimda yurak.  
Ehtimol, shu menga saodat de mak?!  
Kim baxtli...?



## QO'SHTIRNOQ

"Sendan e'tiborni talab qilmasman,  
So'rab ham o'tirmam qaynoq mehringni.  
Sendan ayrilishni o'lim bilmasman,  
Ofat ham sanamam ko'zda sehringni.

Sensiz ham ko'zimga rangindir dunyo,  
Sensiz ham tasavvur qilaman o'zim..." -  
Deb aytsam bir kuni ishonma, aslo,  
Qo'shtirnoq ichida bu bo'lar har so'zim.





## YANA ESLADIM...

Yana vodiylarga kelganda ko'klam,  
Sening o'shal guldek yuzing esladim.  
Ikkimiz sayr etgan bog'larda, sanam,  
Visol shavqi ila seni izladim.

Izlab-izlab netay, topmadim yana,  
Muhabbat jo bo'lgan qaro ko'zlaring.  
Lek hamon yodimda: "Men uchun, aka,  
She'rlar to'qib bering..." - degan so'zlaring.

Hanuz esimdadir shafaqdek porlab,  
Shirin kalomlarga lab ochishlaring.  
Gohida noz ila o'zingga chorlab,  
Noz qilib gohida so'ng qochishlaring...

Qani endi falak, bir bor aylanib,  
O'shal damlar kelsa jonim berardim.  
Dil rozing so'rgali yana shaylanib,  
Dasta-dasta alvon gullar terardim.

Afsus, o'tib ketdi u damlar, erkam,  
Men ham unutmog'ni juda istadim.  
Netay, seplarini yoydi-yu ko'klam,  
Bahoriy visolni yana esladim.



## "SEVGI" IDORASI BOSHIG'IGA!

"Sevgi" idorasin boshlig'i o'zing,  
Men-chi, qo'lingdagi bir ishchidirman.  
Dasturul amaldir u yerda so'zing,  
Ish ham yuritilar farmoning bilan.

Ul jallod ko'zlaring - bo'lim boshlig'i,  
Shaxsiy soqchilaring - ki priklaringdir.  
Noz-u ado bilan bag'ir toshligi,  
Idorani ochgan sheriklaringdir.

Men-ku, ishlayapman tun-u kun tinmay,  
Kundalik me'yordan ortig'in qilib.  
Sen ham visoling maoshin kesmay,  
To'liq bermaysanmi holimni bilib?!

Shundoq ham bezorman "g'am" solig'idan,  
Oydamas har kuni yo'liqgum unga.  
Ajabmas, oldingga kirsam qaytadan,  
Dil lavhiga yozib: "Chidolmam bunga!"

Shunda sen arzimni hazilga yo'y-u  
O'tkir qarash qilgil, mayli, boshliqdek.  
"Sevaman!" - deb avval muhringni qo'y-u,  
"Toabad!" - deb so'ngra imzoingni chek!!!



## XARITAGA BOQQANDA JONON

Butun bir jahonda ulkan muammo:  
Muz erib dunyoni suv gʻarq qilarmish.  
Vah, quyosh taratgan issiqlik, ziyo,  
Kun sayin ortmoqda: hamma bilarmish.

Menimcha, bu yerda oʻzga vaj pinhon -  
Muzliklar erishi oftobdan emas.  
Balki xaritaga boqqancha jonon  
Shimol tomon andak tikilgan-u, bas!

Bas, shundan koʻzlarning taftini olib  
Hattoki muztogʻlar toʻkayotir yosh...  
Bizlarchi, bu sirdan bexabar qolib,  
Aybi yoʻq quyoshga otmoqdamiz tosh.





## HIJRON QUZG‘UNLARI

Hijron quzg‘unlari ko‘ksimni tilib,  
Bitmagan yaramni battarroq shilib,  
Tirnab, yurakkinam lolazor qilib  
Ketgach, anduhlarim tuz sepdilar, oh!

Men bunga toqatni olaman qaydan,  
Fig‘onim avjlari oshdi-ku naydan,  
"Ey, Xayyom, yo‘q de ma, bir ho‘play maydan" -  
Desam, armonlarim bir tepdilar, oh!

Ko‘zlarim giryona tentirab yursam,  
Majnunning xokidan oshiyon qursam,  
Ki ko‘ngul ishidan hayrona tursam,  
Baxtim jafo bilan osh yebdilar, oh!

Qalamga roz aytib, ishoning, toldim,  
"Ey, bor!" deb barini Xudoga soldim,  
"Mashrabning qo‘lidan tanburni oldim" -  
Desam, "Ushshoq"lardan chal, debdilar, oh!

Chalдим-u tebranib tingladi dunyo,  
Chalдим-u ko‘z yoshin ilindi samo,  
Chalдим-u qanotin silkidi xumo,  
Shoyad o‘zlariga yor kepdilar, oh!  
Tegramdan ishq degan zar sepdilar, oh!



## ATIRGUL

Ki prigingdan uchgan daydi o'q tegdi,  
Tegdiy-u takabbur boshimni egdi.  
Nogahon ishq degan ma'bud qoshida.  
Ul ummon yaratdi ko'zim yoshidan.  
Va sahro dilimga atirgul ekdi...

Ul meni tanladi kimlar ichidan,  
Qochdim, yer ostidan yo tog' uchidan.  
Topib, mahv etdi-ya qattol ajaldek,  
Labdan bo'sa oldi shirin g'azaldek,  
Kimlar yer tishlamas uning kuchidan?!

Go'yo cho'g' qalanib oldi alanga,  
Qimmatli or-nomus bo'ldi bir tanga,  
Obdastasin ushlab shabnamlar kutdi,  
Mayin shabbodalar sochig'in tutdi,  
Goh safo, goh jafo qo'l cho'zdi mangal..

Ko'klarga sig'mas so'z ko'ksimga sig'di,  
Ba'zan bitta so'zing yurakni siqdi.  
Jonga tanishtirgan seni - ko'zlarim,  
Ne ko'ylarga soldi meni - ko'zlarim,  
Devorni nam yiqsa, meni g'am yiqdi.



"Mayli..." deganiga ko'nikar labim,  
Kun sayin g'unchaday ochilar ta'bim,  
Sevgi bu - vujudni poklamoq ekan,  
Yamoqli hayotni choklamoq ekan,  
Har na qil, shuningdan qismagil, Rabbim,  
Ekkan atirguling uzmagil, Rabbim!..







\* \* \*

O'zimdanda ketaman - SENga borgali,  
Shirin visolingning hali bor gali.  
O'tkir ki prigingdan bir nayza ilin,  
Yovuz azoblarning ko'ksin yorgali!.

Qoshlaring qoshida bukilsam, ne tong,  
Nigohing tig'idan so'kilsam, ne tong,  
Dunyoning ishiga tikilsam, ne tong ,  
Kimga keldi zar-u, kimga zor gali.

Ishq agar oftobdir, tafakkur - soya,  
Undan farmon erur, bundan rioya,  
Yo'qsa, ne nimlahza qilmish kifoya  
Tangriga loyimiz dard-la qorgali?!

Ko'zlarim bargiga shabnam tushdimi,  
Hislarim - pufakday yengil uchdimi,  
Meni anglab bo'lmas hislat quchdimi:  
Na sukutga hol bor, na yolborgali...

Sahrolarni kezib zerikib ketdim,  
She'r-u may rubobni uch taloq etdim,  
Ayo, ishq, yashirgan siringga yetdim,  
O'zimdanda ketaman - SENga borgali!.



## G'AZAL VA GO'ZAL...

Billur qadahlarga oqqan sharobday,  
Qalbinga quyilib keladi g'azal.  
So'ngra u qadahni o'rgan dudoqday,  
She'ringa lablarin juftlaydi go'zal.

Bu sasni eshitay deya koinot,  
Qulog'in ortiga tutar kaftini.  
Hatto quyosh shovqin solmayin deya,  
To'xtatib turadi o'tli taftini.

Yomg'irlarchi? Yerga tushmay muallaq,  
Shamollar havoga singib ketadi.  
Shoshqaloq soylar ham "o'yin"dan to'xtab  
O'zlarin dengizday vazmin tutadi..:

Qachonki, qog'ozga oqsay-u g'azal,  
Va unga lablarin juftlasa go'zal...



\* \* \*

Mendan oldin kelib milyonlar oʻtdi,  
Mendan keyin balki, oʻtadi milyon.  
Meni kelishimni orziqib kutdi,  
Endi-chi, ketishim kutyapti jahon!

\* \* \*

Aqlim yoqasi qayda, seni koʻrgach ushlasa,  
Yo ushlab turgan mahal bir chetidan tishlasa.  
Labim piyola yangligʻ ochiq qoldi, ne boʻlar,  
Labing u piyoladan boʻsa olsa, xushlasa?!

Koʻzing qorachoʻgʻidan dilda yaram ochigʻi,  
Tirqirab qon oqmoqda... qani mehring sochigʻi,  
Tashna boʻldim andoq-ki, zilolingga, ochigʻi,  
Bir hoʻplab yutay derman, samo koʻzin yoshlasa.

Dengizlar pishqiradi, ishqim choʻgʻini solsam,  
Daydi yellar tiz choʻkar, bir oh urib qoʻzgʻolsam,  
Paygʻom yoʻq sendan hanuz, men dildan xabar olsam,  
"Nechun?" degan soʻroqlar netay sabrim mushtlasa?!



Peshonam kichikmidi, peshonamga sig'mading,  
Kim uchun ko'shk sanalgan vayronamga sig'mading,  
Ne qizlar tavof qilgan ostonamga sig'mading,  
Bu ne sitam, xayolim xayolindan ketmasa.

Bilmam, ishq matlabi ne, falakning maqsadi ne,  
Yulduzlar miqdori-yu g'amimning adadi ne,  
Tubiga shafaq cho'kkan, sharobning madadi ne,  
Ko'z chirt yumib boryapman ishq qay tomon boshlasa...  
Netay, aqlim qosirdir bunda boshim qashlasam...





## **NUQTAGA RASHK**

Xayol og'ushida haykaldek qotib,  
Nigohing qadaysan bir nuqta tomon.  
O'sha on lovullab, o'zni yo'qotib,  
Nigohing qizg'ongum nuqtadan yomon!

Sen hamon o'ydasan... parvoying falak,  
Lablaringda andak kulgu izi bor.  
Hoy, qalbim quyoshi, adolat kerak:  
Nahot, bir nuqtaga shuncha e'tibor?!.





\* \* \*

Subhidam oh urdim - gulim sarg'aydi,  
Yaprog'in ushladim - qo'lim sarg'aydi.  
Qo'limdan zum o'tmay badanga o'tdi,  
Oyoq tekkizdim-u yo'lim sarg'aydi.

U yo'lda ketyapman... chor-atrof so'lib,  
Men kabi kiryapti xazon tusiga.  
Bu ne balo bo'ldi, men sabab bo'lib,  
Olam yuzlandi-ku fasli kuziga?!

Qaydanam oh urdim, bahor chog'ida?!





\* \* \*

Labing sharobidan no‘sh etsam yana,  
Tashnalik kosasi oqibat to‘lsa.  
Simib yotganimda... ki priging pana  
Misoli boshimda soyabon bo‘lsa.

Qizib ketsam qoshing joyidan tushib,  
Tovus patlaridek yelpisa sekin...  
Buni ko‘rgan zohid jannatdan kechib,  
Menga hasad bilan qarashi tayin.

Nafsim-da yo‘l to‘sib halal berganda,  
Sochlaring sollanib dorin uzatsa.  
Donishim behuda ko‘krak kerganda,  
Jununim dars berib, xulqin tuzatsa.

Yetarmanmi shunda Xayyomga orzu.  
Soqiyning labolab qadahlariga?  
Farah ichra pinhon dardlariga-yu  
Dard ichida pinhon farahlariga?!.

Mayli, ro‘za tutay visol onlari,  
Mayli, uzlatlarga kirayin qochib.  
Faqat iftor payti savob olsaydim.  
Labing sharobi-la og‘zimni ochib...



## **AYTILMAGAN GAP**

"Baliq ham ilinar tilidan...", ajab,  
O'ylayman... bu gapda juda ko'p hikmat.  
G'azab chog'idagi aytilmagan gap,  
Senga ming tashakkur, ming bora rahmat!

"Gap kelsa otang ham turmagil ayab..."  
O'ylayman... bunda ham ma'nolar qat-qat:  
Zolinga qarshi ey, aytilmagan gap,  
Senga ming malomat,  
Senga ming la'nat!!!







## "ILTIMOS, SUYANMANGIZ!"

Metro. Vagon. Eshik oynasida  
Bir jumla bor eslang, koʻp oʻylanmangiz.  
Ha, oʻsha oʻrindiqli yonginasida  
Yozilgan: "Iltimos, suyanmangiz!"

Bu-ku, ma'muriyat savobli ishi,  
Yoʻlovchi nafi deb uni bitarlar.  
Valekin koʻp holda aksari kishi  
Eshikka suyanib befarqli ketarlar...

Mayli, tanqid nechun, azizim, sizga,  
Shundoqli ham tanqidga gazetlar toʻldi.  
Qoʻrqaman, lek bir kun bir-birimizga:  
"Iltimos, suyanmang!" de masak boʻldi.





## **IZTIROB**

Ki prigim uchiga osilar g‘amlar,  
Koshkiydi, yosh kabi uzilsa ular.  
Lek, ular na oqar va na to‘kilar,  
Chunki, yer shimganda bag‘ri so‘kilar.  
Yer esa Onamdir!  
Bermayman ozor,  
Shundoq ham ko‘ksini  
Tilganman ko‘p bor.  
Koshki,  
o‘z dardimni unutib bir dam,  
Uning bor hasratin qilib jamuljam,  
Ki prigim uchida ko‘tarib yursam,  
Loaqa, shu bilan farzandlik qilsam,  
Koshki...



## **SHOIR ALAMI**

*(hazil)*

Dil qulogʻiga ilhom soʻz pichirlar damba-dam,  
Dil buyruq berar qoʻlga, qoʻl esa tutgay qalam.  
Soʻngra oppoq qogʻozning yuzi boʻlar qop-qora,  
Axir shoir kimdandir olmogʻi kerak alam?!.





## **MUHTOJLIK VA BEZORLIK**

Ko'nglinga bir og'iz so'zing yetishmas,  
Ko'nglinga bir og'iz so'zing ortiqcha.  
Ko'nglimni hech kishi olishni bilmas,  
Ko'nglimni bir o'zing olding, menimcha.

Olding-u tashlading bamisoli xas,  
O't aro o'rtandim, holim bo'lakcha:  
Muhtojman - ozgina mehring yetishmas,  
Bezorman - ozgina qahring ortiqcha...





*Aleksandr Sergeevich Pushkin*  
*ijodidan qilingan tarjimalar*

## **KO'Z YOSH**

Kecha bir qadah may ichib  
Gusar birla o'ltirdim.  
Xira ta'bim birla olis.  
Manzilimga termuldim.

"Nechun, tikilding yo'lga?" - deb  
Savol berdi ul jasur.  
"Hali undan ahboblarni.  
O'tkazmading, ming shukur".

Boshimni xam qilib shunda,  
Dedim asta shivirlab:  
"Gusar, oh ketdi ul jonon,  
Meni firoqqa tashlab".

Ki prikda qatra yosh qalqib,  
Tomdi gulgun jomimga.



"Yigit! Bir qiz uchun yig'lab  
Dog' tushirma nomingga!"

"Qo'ygil, Gusar, sen bedardga  
Bilmoq uchun bor hali.  
Afsuski, tomchi yosh yetar  
Mayni og'u qilgali".





## QUSHCHA

G'urbat ichra kuzatgum to'yib,  
Ona xalqim ko'hna odatin:  
Bir qushchani yuborgum qo'yib,  
Bahor chog'i silab qanotin.

Haqqa qilib tavallo bu dam,  
Ajib tuyg'u chulg'amish qalbim.  
Mayliga bir jonzot bo'lsa ham,  
Unga hurlik baxsh eta oldim!





## **BULBUL VA GUL**

Sokin bog‘da, bahor... ayni tungi chog‘,  
Xonish aylar gulga oshufta bulbul.  
Gul esa bu unni eshitmas, biroq  
Ishq kuyidan mudrab, tebranadi ul.

Bas, to‘xtat, ey, shoir, nadur urinish,  
Balki bu chiroyga qo‘shiq mos e mas.  
Unda yo‘q shoirni sezish, eshitish;  
Qara, u yashnagay: lek javob bermas.







## **ALDASA HAYOT...**

Agar seni aldasa hayot,  
G'azab qilma, bo'lma xafahol!  
Mahzun kunda shuni ayla yod:  
Hali shod kun keladi, ishon.

Kelajakda bu ko'ngil yashar,  
Senga aytay men bir haqiqat:  
Bari oniy, barchasi o'tar,  
O'tgan ishga,  
derlar:  
Salovat!





## HARAKAT

Harakat - yo‘q, dedi, sersoqol dono,  
Birov esa yurdi girdida biroz.  
Yo‘q edi bundan-da kuchli e'tiroz,  
Barcha unga shun-chun aytdi tasanno.

Ammo, do‘stlar, ajib bir holani aytay,  
Xotiramga o‘zga misol keltirsam:  
Axir, quyosh har kun biz-la yursa ham,  
Haq chiqdi-ku oxir qaysar Galiley.





## GUL

Ko'hna bir kitobni varaqlagan payt,  
Sarg'ayib, qurigan bir gulni ko'rdim.  
O'shal on qalbmida men sirli, g'alat,  
O'ylarga g'arq bo'lib xayollar surdim.

Qayda ungan? Qachon? Qaysi bir ko'klam?  
Uzoq yashnaganmi, kim uni uzgan?  
Uzgan qo'l tanishmi yoki yot, bilmam,  
Va nechun bu yerga solib qo'yilgan?

Yo u esdalikmi visol onidan,  
Yo achchiq firoqdan xotiramikin;  
Sokin dalalar yo qalin o'rmonda,  
Tanho sayr qilgandan yodnoma, balkim?

Ul biri hayotmi, bul biri bormi,  
Qayda ular oldin uchrashar oshyon?  
Yo ular ham endi so'lib qoldimi,  
Xuddi shu qurigan guldek za'faron?...



## SIKLOP

Til-u fikratimdan ayrilib birdan,  
Termulaman sizga tanho ko‘z bilan:  
Tanho ko‘zim bordir manglayda, erkam,  
Qachondir bu taqdir kirsaydi so‘zga,  
Qachondir yuzta ko‘z sohibi bo‘lsam,  
O'sha yuztasi-la boqardim sizga.





## MUNDARIJA

She'rlarim.....	5
O'sma.....	5
Tomchilar.....	6
Dunyolarga bergisizim mening.....	7
Ishq tilovati.....	9
Eshit ey, yor.....	10
Xayol va hayot.....	11
Ki priging - gugurtcho'p.....	12
El ko'zidan pinhon.....	13
Sochlaringga taroq ursang.....	13
Sohir tun.....	14
Yomg'irga qoyilman.....	15
G'azal (Sobit erdim...)	15
She'riyat - qandolat do'koni.....	17
Men takror emasman.....	19
Bu oshiq soʻzim.....	20
Oshiqlar dunyosi.....	21
Ona.....	21



Qog'ozga sig'magan dardlarim.....	21
Buvinning bog'i.....	22
Varrak.....	24
Haqgo'y deydiki.....	24
Onaning ko'zi uchsa.....	25
Kuz ilhomlari.....	27
Qalbdan chiqqan satrlar.....	27
Ruhiyat fasllari.....	28
Kulsang.....	29
So'z domini qo'ydim.....	30
Sabrim bulutlari.....	32
Kim baxtli.....	33
Qo'shtirnoq.....	34
Yana esladim.....	35
"Sevgi" idorasi boshlig'iga!.....	36
Xaritaga boqqanda jonon.....	37
Hijron quzg'unlari.....	38
Atirgul.....	39
O'zimdanda ketaman.....	41
G'azal va go'zal.....	42



Mendan oldin kelib.....	43
Aqlim yoqasi qayda.....	43
Nuqtaga rashk.....	45
Subhidam oh ursam.....	46
Labing sharobi.....	47
Aytilmagan gap.....	48
"Iltimos, suyanmangiz!" .....	49
Iztirob.....	50
Shoir alami.....	51
Muhtojlik va bezorlik.....	52

***Aleksandr Sergeyevich Pushkin ijodidan  
qilingan tarjimalar***

Koʻz yosh.....	53
Qushcha.....	55
Bulbul va gul.....	56
Aldasa hayot.....	57
Harakat.....	58
Gul.....	59
Siklop.....	60

RUSTAM MIRVOHID

## **BU – OSHIQ SO‘ZIM**

*She‘rlar*

Muharrir: *Humoyun Akbarov*

Rassom:

Badiiy muharrir: *Iqbol Abdurazzoqova*

Texnik muharrir: *Nodir Suvonov*

Sahifalovchi: *Oygul Fozilova*

Nashriyot litsenziyasi №. 181. 08.12.11.

Terishga 16.09.2011 da berildi. Bosishga ruxsat 02.12.2011 da berildi. Bichimi 70x90 <sup>1</sup>/<sub>32</sub>. Ofset usulida bosildi. «Acade my» garniturası. Shartli b.t. 2,34. Nashr-hisob t. 2,0. Adadi 20.000 nusxa. Buyurtma №

«ADIB» nashriyotida tayyorlandi.

100027. Toshkent. O‘zbekiston ko‘chasi, 16-uy.

Tel: (8371) 245-89-24.